

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYALANUVCHILARIGA  
INKLYUZIV TA'LIM-TARBIYA BERISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.**

**M.K.Jabborova**

*Shah.DPI Pedagogika fakulteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

**Nazarova Zarinabonu Hamdam qizi**

*Shah.DPI Pedagogika fakulteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlari inklyuziv ta'lim-tarbiya berish va uni takomillashtirish haqida so'z yuritilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается вопрос об эксклюзивном обучении дошкольных организаций и его совершенствовании.*

**Abstract:** *Education, upbringing, movement, improvement, development*

Mamlakatimizda Ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimida ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Inkyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundan iboratki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlardan oq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirish hisoblanadi.

**INKLYUZIV TA'LIM SOG'LOM BOLALAR HAYOTIGA QANDAY TA'SIR  
KO'RSATADI?**

-o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

-tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi.

-ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish- insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

-yordamga muhtoj insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat o'zaro hurmat tarbiyalanadi;

-hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda.

### **INKLYUZIV TA'LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA NIMA BERADI?**

-o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;

-mustaqil harakatlanish birgalikda hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

-dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

-o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

-yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'limni shakllantirish tamoyilining mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak hisoblanadi. Ma'lumki inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiradi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanligini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. 2020-yil oktabr oyida qabul qilingan Prezidentimizning "alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori bunga yaqqol misol buladi.unga ko'ra tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim joriy qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etishda bolalarning zaif tomonlariga alohida e'tibor qaratishi lozim. Shu munosabat bilan aynan pedagog har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish huquqini ta'minlashi lozim degan g'oya ilgari surilib, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

-har bir inson his etish va fikr yuritishga qodir;

-har bir inson muloqot yuritishga va uning fikrlari e'tirof etilishiga haqlidir.

-insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va erishilgan yutuqlari bilan belgilanmaydi;

-barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi;

-chinakam ta'lim muayyan o'zaro munosabatlar doirasida amalga oshirilishi mumkin;

-barcha insonlar qo'llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do'st bo'lishga ehtiyoj sezadi;

-ta'lim olayotganlar uchun ijobiy yutuqlarga erishish qo'lidan kelmaydigan ishdan ko'ra, uddalay oladigan ishni ko'proq namayon qilish;

-ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning o'sishini, ularning rivojlanishi va maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotida faol ishtirokni qo'llab-quvvatlash borasida qimmatli uslubiy tajriba to'plash;

-maktabgacha ta'lim tashkiloti va qisqa guruhlarda bolalarning talab-ehtiyojlariga uzluksiz moslashuvlarini ta'minlash zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori PQ-4312 13.10.2019

2.D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil

3.Олимов, К.Т.Узакова, Л. П. Тураева (2015). Новые возможности в передаче дизайнов вышивки современных вышивальных швейных машин Janome Memory Craft. Молодой ученый (7), 187-189